



ARAB VA O'ZBEK TILLARIDAGI DIPLOMATIK TERMINLARNING EKVIVALENTLIK MASALASI

Abdirashidova Shohida Barot qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti Sharq
tillari fakulteti 2-kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20606794>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 06-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 09-iyun 2026 yil

KEYWORDS

diplomatik termin,
ekvivalentlik, tarjima, arab tili,
o'zbek tili, qiyosiy tahlil,
diplomatik diskurs,
terminologiya.

ABSTRACT

Maqola arab va o'zbek tillaridagi diplomatik terminlarning ekvivalentligini qiyosiy-lingvistik nuqtayi nazardan o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda diplomatik terminlar uch guruhga ajratilib, ularning semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi: to'liq ekvivalent, qisman ekvivalent va ekvivalentsiz terminlar. Shuningdek, terminlarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan leksik-semantik qiyinchiliklar va ularni yengish yo'llari ko'rib chiqiladi. Arab va o'zbek tillari lingvistik jihatdan tubdan farq qilsa-da, diplomatik terminologiyada o'xshashliklar mavjudligi va ularning tarixiy, madaniy hamda siyosiy kontekstga bog'liqligi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari terminologik tadqiqotlar va diplomatik diskursni o'rganishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlarning o'рни va ularni ifodalovchi terminlarning roli beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikning kengayib borishi diplomatik muloqotning faol va uzluksiz olib borilishini taqozo etadi. Mazkur diplomatik aloqalar, rasmiy muzokaralar, hujjatlar, bayonotlar, deklaratsiyalar hamda xalqaro shartnomalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu hujjatlarning asosiy til vositalaridan biri sifatida diplomatik terminlar xizmat qiladi. Bunday diplomatik terminlarning mazmunan aniq, lisoniy jihatdan mukammal va to'g'ri qo'llanilishi xalqaro munosabatlarda tushunmovchiliklarning hamda siyosiy ziddiyatlarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Diplomatik terminlar o'ziga xos semantik va funksional xususiyatlarga ega bo'lib, ular rasmiy-idoraviy uslub doirasida shakllanadi va qat'iy lisoniy me'yorlarga bo'ysunadi. Shu sababli diplomatik terminologiyani lingvistik jihatdan o'rganish, xususan, turli tillar doirasida qiyosiy-tipologik tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning eng ustuvor va dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Turli til oilalariga mansub tillardagi diplomatik terminlarning o'zaro mosligi, semantik maydoni va tarjima xususiyatlarini aniqlash ilmiy jihatdan katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Arab va o'zbek tillari genealogik va struktur jihatdan (arab tili somiy-xomiy tillar oilasiga, o'zbek tili esa turkiy tillar oilasiga mansub) bir-biridan butkul farq qiluvchi tillar bo'lishiga qaramay, diplomatik terminologiya sohasida muayyan umumiyliklar va o'xshashliklarga ega.

Bu holat, avvalo, diplomatiya sohasining universal va xalqaro xarakteri bilan izohlanadi. Shu bilan birga, har bir tilning tarixiy rivojlanish yo'li, milliy-siyosiy tajribasi va madaniy muhitiga bog'liq holda diplomatik terminlarning qo'llanishida ham o'ziga xos farqlar yuzaga keladi. Natijada ayrim terminlar ikki tilda mazmunan to'liq mos kelsa, boshqalari qisman moslikka ega bo'ladi yoki umuman leksik ekvivalentga ega bo'lmaydi.

Diplomatik matnlarni tarjima qilish jarayonida terminlarning ekvivalentlik masalasi alohida ilmiy e'tiborni talab etadi. Tarjima amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ayrim diplomatik terminlar arab va o'zbek tillarida bir xil semantik mazmunga ega bo'lsa, ba'zi terminlar faqatgina kontekst asosida turlicha talqin qilinishi mumkin. Shuningdek, shunday terminlar ham mavjudki, ular uchun ikkinchi tilda to'liq muqobil lisoniy birlik topish mushkul hisoblanadi. Bunday hollarda tarjimon izohli, tavsifiy yoki kalkalash usullaridan foydalanishga majbur bo'ladi. Bu esa diplomatik matnning rasmiyligi, aniqligi va uning pragmatik ta'sir kuchiga bevosita daxldordir.

Mazkur maqolada arab va o'zbek tillaridagi diplomatik terminlarning ekvivalentlik masalasi qiyosiy-lingvistik jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi ikki til diplomatik terminologiyasida to'liq ekvivalent, qisman ekvivalent va ekvivalentsiz terminlarni aniqlash hamda ularning semantik va funksional xususiyatlarini tizimli tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida terminologik lug'atlar, rasmiy diplomatik hujjatlar hamda tarjimashunoslikka oid zamonaviy ilmiy manbalardan foydalanildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, arab va o'zbek tillaridagi diplomatik terminlar ekvivalentlik darajasiga ko'ra tizimli ravishda tasniflanib, ularning semantik hamda funksional xususiyatlari qiyosiy-lingvistik jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, diplomatik terminlarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan leksik-semantik muammolari aniqlanib, ularni bartaraf etishning samarali usullari tavsiya etildi.

Diplomatik terminlar va ularning ekvivalentlik tasnifi. Diplomatik terminlar davlatlararo rasmiy muloqotning bosh leksik vositasidir. Ular rasmiy maktublar (مراسلات - murāsālāt) va xalqaro shartnomalar (اتفاقيات دولية - ittifaqiyāt dawliyya) orqali xalqaro hamkorlikni aniqlik bilan amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu terminlarning diplomatiya (الدبلوماسية - ad-diblūmāsiyya) sohasida qo'llanilishi, ularning semantik va funksional tabiatini o'rganish zamonaviy tarjimashunoslikda muhim o'rin tutadi. Tarjimashunoslikda ekvivalentlik masalasi A.V. Fyodorov, Ya.I. Retsker va V. Koller kabi olimlar tomonidan fundamental o'rganilgan. Diplomatik matnlarni tarjima qilishda terminlarning ekvivalentlik darajasini aniqlash maqsadida arab va o'zbek tillaridagi leksik birliklar uchta asosiy guruhga ajratildi:

1. To'liq ekvivalentlar- Ma'no va kontekst jihatdan boshqa tilda ham to'liq, bir qiymatli mos keladigan terminlardir. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

معاهدة (mu'āhada) – Shartnoma

بروتوكول (brütükül) – Protokol

سفير (safir) – Elchi

المفاوضات السلمية (al-mufāwadaāt as-silmiyya) – Tinchlik muzokaralari

2. Qisman ekvivalentlar- Asosiy semantik ma'nosi saqlangani holda, madaniy, kontekstual yoki funksional jihatdan ma'lum o'zgarishlarga uchraydigan terminlardir. Ularning aniq ma'nosi faqat matn ichidagina namoyon bo'ladi:

الحصانة الدبلوماسية (al-hasāna ad-diblūmāsiyya) – Diplomatik imtiyoz / daxlsizlik

عقوبات (uqūbāt) – Sanksiyalar (Asl so'zma-so'z ma'nosi arab tilida "jazolar" demakdir)

3. Ekvivalentlessiz terminlar- Ikkinchi tilda bevosita mos keladigan lug'aviy muqobili bo'lmagan, shu sababli tavsiflash, tushuntirish yoki o'zlashma so'zlar orqali tarjima qilinadigan xalqaro tushunchalardir. Masalan:

الاستعانة بمصادر خارجية (al-isti'āna bi-masādir khārijiyya) – Outsorsing (Tashqi manbalardan foydalanish)

برامج التعاون الدولي (barāmij at-ta'āwun ad-dawlī) – Xalqaro hamkorlik dasturlari (kontekstual kengaytirishni talab qiladi)

Tarjima metodologiyasi va qo'llaniladigan transformatsiyalar. Diplomati matnlarni o'zbek tilidan arab tiliga yoki aksinchaga o'girishda tarjimondan faqatgina lug'aviy bilim emas, balki yuqori darajadagi pragmatik transformatsiyalarni qo'llash mahorati talab etiladi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, semantik, tavsifiy hamda komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Arab va o'zbek tillaridagi diplomatik terminlar rasmiy diplomatik hujjatlar, terminologik lug'atlar va ilmiy manbalar asosida tanlab olinib, ularning semantik tuzilishi hamda funksional xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, terminlarning tarjima jarayonidagi ekvivalentlik darajasi aniqlanib, tarjimaviy transformatsiyalarning qo'llanish holatlari o'rganildi. Tadqiqot davomida diplomatik terminlarni tarjima qilishda asosan quyidagi usullardan foydalanilishi aniqlandi:

1. Transkripsiya va Transliteratsiya (نسخ صوتي وكتابي): Rasmiy shaxslarning ismlari, unvonlari yoki geografik-siyosiy nomlarni asliga mos ravishda uzatishda qo'llaniladi.

2. Kalkirovka (الاقتباس البنوي): Tashkilotlar, xalqaro shartnomalar yoki rasmiy idoralar nomlarini so'zma-so'z ko'chirib tarjima qilishda ishlatiladi.

3. Semantik transformatsiyalar (التحويل الدلالي): Terminning tub ma'nosini diplomatik etiket va qolipga moslab, aniqlik bilan uzatishda yordam beradi.

4. Grammatik va leksiko-grammatik transformatsiyalar (التحويل الصرفي والنحوي): Arab va o'zbek tillarining grammatik qurilishi (sintaksisi) turlicha bo'lganligi sababli, jumlar tuzilishini moslashtirish va uslubiy aniqlikni saqlash maqsadida qo'llaniladi.

Tarjima jarayonidagi muammolar va ularning yechimlari. Arab va o'zbek tillari o'rtasidagi diplomatik muloqotni tarjima qilishda quyidagi asosiy to'siqlar ko'zga tashlanadi:

Polisemiya muammosi: Bitta diplomatik so'zning ayni vaqtda siyosiy, iqtisodiy va harbiy sohalarda turlicha ma'no anglatishi.

Lisoniy strukturaviy tafovutlar: Arab tili sintaksisida aniqlovchi aniqlanmishdan keyin kelishi (masalan, al-mufāwadaāt as-silmiyya) va fleksiyaga (sintaktik o'zgarishlarga) boyligi o'zbek tili qurilishiga moslashtirishda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Madaniy-tarixiy kontekst: Ayrim terminlar muayyan mintaqaga yoki xalqaro tashkilotlarning ichki muhitiga xos bo'lib, ularni shunchaki tarjima qilish ma'no bo'shlig'ini yuzaga keltiradi.

Strategik yechimlar sifatida quyidagi usullar taklif etiladi:

1. Parafraz (tavsifiy ifodalash): Muqobil so'z bo'lmaganda tushuntirish berish.

2. Kontekstual adaptatsiya: Tarjimoni qabul qiluvchi tilning diplomatik madaniyatiga va rasmiy qoliplariga moslashtirish.

Ilmiy-amaliy misollar tahlili.

Quyidagi jadvalda tadqiqot obyekti sifatida olingan arabcha diplomatik terminlar, ularning o'zbekcha muqobillari va ushbu terminlarning manbalari tizimli ravishda aks ettirilgan:

Arabcha termin (Transkripsiyasi), O'zbekcha muqobili, Adabiyot.

	Arabcha termin (Transkripsiyasi)	O'zbekcha muqobili	Adabiyot
1	دبلوماسية (diblūmāsiyya)	Diplomatiya	Barakat, 2018
2	المفاوضات السلمية (al- mufāwadaāt as-silmiyya)	Tinchlik muzokaralari	UN Arabic Glossary, 2021
3	القانون الدولي (al-qānūn ad-dawlī)	Xalqaro huquq	Barakat, 2018
	اتفاق السلام (ittifāq as- salām)	Tinchlik kelishuvi	Al-Hadidi, 2017
5	العلاقات الثنائية (al-‘alāqāt ath-thunā’iyya)	Ikki tomonlama munosabatlar	Barakat, 2018
6	السياسة الخارجية (as- siyāsa al-khārijīyya)	Tashqi siyosat	Al-Hadidi, 2017
7	المنظمات الدولية (al- munazzamāt ad-dawliyya)	Xalqaro tashkilotlar	UN Arabic Glossary, 2021
8	الرسالة الدبلوماسية (ar- risāla ad-diblūmāsiyya)	Diplomatik maktub (xat)	Barakat, 2018
9	البروتوكول الدبلوماسي (al- brūtūkūl ad-diblūmāsiyya)	Diplomatik protokol	Al-Hadidi, 2017
10	المصالح القومية (al- masālih al-qawmiyya)	Milliy manfaatlar	Barakat, 2018
11	العقوبات الاقتصادية (al- ‘uqūbāt al-iqtisādiyya)	Iqtisodiy sanksiyalar	Al-Hadidi, 2017
12	التمثيل القنصلي (at- tamthīl al-qunsulī)	Konsullik vakolatxonasi	UN Arabic Glossary, 2020
13	الاتفاقيات الثنائية (al- ittifāqiyāt ath-thunā’iyya)	Ikki tomonlama kelishuvlar	Barakat, 2018
14	حماية حقوق الإنسان (himāyat huqūq al-insān)	Inson huquqlarini himoya qilish	UN Arabic Glossary, 2021
15	الوساطة الدبلوماسية (al- wisāta ad-diblūmāsiyya)	Diplomatik vositachilik	UN Glossary, 2021
16	السيادة الوطنية (as-siyāda al-wataniyya)	Milliy suverenitet	UN Glossary, 2021
17	التمثيل الدائم (at-tamthīl ad-dā’im)	Doimiy vakillik	Barakat, 2018
18	قرار مجلس الأمن (qarār majlis al-amn)	Xavfsizlik Kengashi qarori	UN Official Documents, 2020
19	اتفاقية تجارية (ittifāqiyya tijāriyya)	Savdo kelishuvi	Al-Hadidi, 2017

20	القمة الدولية (al-qimma al-dawliyya)	Xalqaro sammit	Barakat, 2018
21	الاتفاقيات المتعددة الأطراف (al-ittifāqiyāt)	Ko'p tomonlama kelishuvlar	Al-Hadidi, 2017
22	المساعدات الإنسانية (al-musā'adāt)	Insonparvarlik yordami	UN Arabic Glossary, 2021
23	المفاوضات السرية (al-mufāwadaāt as-sirriyya)	Maxfiy muzokaralar	Barakat, 2018
24	التحكيم الدولي (at-tahkīm ad-dawlī)	Xalqaro arbitraj	UN Glossary, 2021
25	التنمية المستدامة (at-tanmiyya al-mustadāma)	Barqaror rivojlanish	UN Arabic Glossary, 2021
26	التعاون الدولي (at-ta'āwun ad-dawlī)	Xalqaro hamkorlik	Al-Hadidi, 2017
27	سياسة الاحتواء (siyāsāt al-ihtiwa')	Tiymoq (cheklash) siyosati	Al-Hadidi, 2017
28	التمثيل الفخري (at-tamthīl al-fakhrī)	Faxriy vakillik	UN Glossary, 2021
29	البيان السياسي الدقيق (al-bayān as-siyāsī)	Nozik siyosiy bayonot	Muallif tarjimasi
30	الحظر الدولي (al-hazr ad-dawlī)	Xalqaro embargo (taqiq)	UN Glossary, 2021

Tahlil qilingan terminlarning aksariyati to'liq ekvivalent birliklarni tashkil etgani holda, qisman ekvivalent va ekvivalentsiz terminlar tarjima jarayonida qo'shimcha transformatsiyalarni talab qilishi aniqlandi.

Xulosa. Arab va o'zbek tillaridagi diplomatik terminlarning ekvivalentlik masalasini qiyosiy-lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, diplomatik terminlar lisoniy tabiati va tarjima qilinish xususiyatiga ko'ra uchta yirik guruhga (to'liq ekvivalent, qisman ekvivalent va ekvivalentsiz) ajraladi. To'liq ekvivalentlar ikki tilda bir xil denotativ ma'noni ifodalab, tarjima jarayonida minimal izoh talab qiladi. Qisman ekvivalentlar va ekvivalentsiz birliklar esa o'ziga xos tarixiy, madaniy hamda siyosiy xususiyatlarga ega bo'lib, ularni o'zbek tiliga o'girishda transformatsiyalar va tavsifiy metodlardan unumli foydalanish lozim.

Ikkinchidan, har ikki tilning grammatik va tizimli tafovutlariga qaramay, global diplomatiyaning umumiyliigi terminologiyada ko'plab o'xshashliklarni yuzaga keltirgan. Tarjimonning nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik (siyosiy, madaniy, huquqiy) bilimlari tarjima sifatini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotdan olingan natijalar arab va o'zbek tillarida diplomatik terminlarning mukammal lug'atlarini yaratishda, xalqaro hujjatlarni professional tarjima qilishda hamda soha mutaxassislarini tayyorlashda muhim amaliy manba bo'lib xizmat qila oladi. Bundan tashqari ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, arab va o'zbek tillaridagi diplomatik terminlarning muayyan qismi to'liq ekvivalentlikka ega bo'lsa, ayrim terminlar qisman ekvivalent yoki

ekvivalentsiz birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Bunday terminlarni tarjima qilishda kontekstual adaptatsiya, semantik transformatsiya va tavsifiy tarjima usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Olingan natijalar diplomatik terminologiyani yanada chuqurroq o'rganish hamda arab va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjima amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. القاهرة: دار المعارف، 2017، - 184 - . (Al-Hadidi M. Zamonaviy arab tilidagi diplomatik terminlar va bugungi tarjima muammolari).
2. بيروت: دار العلم للملايين، 2018، - 245 ص. (Barakat A. Arab-o'zbek diplomatik diskursi: kontekst va lug'atlar).
3. (UNTERM) (BMT Ko'ptilli terminologiya ma'lumotlar bazasi). - 2021. [Rasmiy havola: unterm.un.org]
4. نيويورك: قسم المصطلحات، 2020. [Rasmiy havola: www.un.org/arabic]
5. Алтаева М. Т., Абдраимова Н. Б. Особенности перевода дипломатической терминологии // KazNU Bulletin. Oriental Series. - 2013. - № 2(63). - С. 6-12. [Onlayn manba: bulletin-oriental.kaznu.kz]
6. Федоров А. В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). - Москва: Высшая школа, 1983. - 303 с.
7. Рецкер Я. И. Теория перевода и переводческая практика. - Москва: Международные отношения, 1974. - 216 с.
8. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. - Москва: Международные отношения, 1980. - 342 с.
9. Швейцер А. Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. - Москва: Наука, 1988. - 215 с.
10. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. - London: Routledge, 2011. - 332 p. [Onlayn manba: routledge.com]
11. Hatim B., Mason I. Discourse and the Translator. - London: Longman, 1990. - 243 p.
12. Newmark P. A Textbook of Translation. - New York: Prentice Hall, 1988. - 292 p.
13. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. - Leiden: Brill, 1969. - 220 p.
14. Lefevere A. Constructing Cultures: Essays on Literary Translation. - London: Routledge, 2002. - 185 p.
15. House J. Translation Quality Assessment: A Model Revisited. - Tübingen: Narr, 1997. - 211 p.
16. Koller W. The Concept of Equivalence and Translation // Meta: Journal des traducteurs. - 1979. - Vol. 24(3). - P. 186-191. [Onlayn manba: erudit.org/meta]
17. Al-Qinai J. Translation Quality Assessment: Strategies, Parameters and Procedures // Meta. - 2000. - Vol. 45(3). - P. 497-519. [Onlayn manba: doi.org/10.7202/003030ar]
18. Badawi E., Carter M., Gully A. Modern Written Arabic: A Comprehensive Grammar. - London: Routledge, 2004. - 512 p.